

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

## PIRLS TADQIQOTI UCHUN TANLANADIGAN O'QUV MATERIALLARINING XUSUSIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası P.f.b.f.d professori

**Komilova Xurshida Toxirovna**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
talabasi **To'xtamurodova Oydinoy Botirjon qizi**  
email: [oydinoytoxtamurodova@gmail.com](mailto:oydinoytoxtamurodova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlashda qo'llaniladigan o'quv materiallarining o'ziga xos pedagogik va lingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning matni idrok etish darajasini baholashga xizmat qiluvchi badiiy va informatsion matnlarning tarkibiy tuzilishi, ularning didaktik ahamiyati hamda leksik murakkablik darajasi qiyosiy tahlil qilgan. Maqolada matnlarni saralashning asosiy mezonlari sifatida ularning o'quvchilar yosh fiziologiyasiga mosligi, dunyoqarashini kengaytirishdagi roli va PIRLS xalqaro baholash tizimi standartlariga muvofiqligi masalalari ko'tarilgan. Shuningdek, maqolada o'quv materiallaridagi vizual elementlar (rasmlar, jadvallar, diagrammalar) va matnning kognitiv yuklamasi o'rtasidagi mutanosiblikning o'quvchi natijalariga ta'siri yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, o'qish savodxonligi, badiiy matn, informatsion matn, baholash tizimi, o'quv materiallari, xalqaro tadqiqot, lingvistik murakkablik, didaktik tahlil, metodik kompetensiya.

**Аннотация:** В статье рассматриваются специфические педагогические и лингвистические особенности учебных материалов, используемых для определения читательской грамотности учащихся начальной школы в рамках международной программы оценки PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). В ходе исследования был проведен сравнительный анализ структурной организации художественных и информационных текстов, их дидактической значимости и уровня лексической сложности, что позволило оценить уровень восприятия текста учащимися. В статье рассматриваются вопросы соответствия текстов возрастной физиологии учащихся, их роли в расширении кругозора и соответствия стандартам международной системы оценки PIRLS как основных критериев отбора текстов. В статье также рассматривается влияние баланса между визуальными элементами (изображениями, таблицами, диаграммами) в учебных материалах и когнитивной нагрузкой текста на успеваемость учащихся

**Ключевые слова:** PIRLS, читательская грамотность, художественный текст, информационный текст, система оценивания, учебные материалы, международное



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

исследование, лингвистическая сложность, дидактический анализ, методическая компетентность.

**Abstract:** This article examines the specific pedagogical and linguistic features of educational materials used to assess reading literacy among primary school students within the framework of the PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) international assessment program. The study analyzed the structural structure of literary and informational texts, their didactic significance, and the level of lexical complexity, which serves to assess the level of students' perception of the text. The article raises the main criteria for sorting texts: their relevance to the age physiology of readers, their role in expanding their worldview, and their compliance with the standards of the PIRLS international assessment system. The article also discusses the impact of the balance between visual elements (pictures, tables, diagrams) and the cognitive load of text in educational materials on student outcomes.

**Keywords:** PIRLS, reading literacy, literary text, informational text, assessment system, educational materials, international research, linguistic complexity, didactic analysis, methodological competence.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa madaniyati va matnni anglash darajasini tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonda qo'llaniladigan ta'limiy manbalar fundamental ahamiyatga ega. "2021-yilda o'tkazilgan PIRLS kuzatuvlarida jahonning 57 mamlakati ishtirok etgan. Mazkur xalqaro sinovlarda O'zbekiston Respublikasi 49-pog'onani band etgan. PIRLS 2021 natijalariga ko'ra, badiiy janrdagi matnlarni o'zlashtirish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 438 ballni, axborot xarakteridagi matnlar bo'yicha esa 434 ballni tashkil etgan. Ushbu materiallar o'quvchilarning matn mazmunini idrok etish, mantiqiy mulohaza yuritish va xulosa chiqarish salohiyatini tekshirishga moslashtirilgan"<sup>1</sup>. Zero, PIRLS baholash tizimi shunchaki bilim darajasini o'lchash emas, balki o'quvchining olgan ma'lumotini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida matn bilan ishlash strategiyalarini tubdan isloh qilishni va o'quvchi dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda pedagoglarning o'quv ashyolari bilan ishlash bo'yicha qo'llaydigan metodik yondashuvlari alohida o'rin tutgan. Mamlakatimizdagi "4-sinf bitiruvchilarining atigi 42,9 foizi o'qigan ma'lumotlarini to'liq tushunish ko'nikmasiga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu maqola doirasida PIRLS tizimi talablariga muvofiq o'qituvchilar foydalanishi lozim bo'lgan samarali ish usullari, shuningdek, tadqiqot uchun tanlab olinadigan matnlarning o'ziga xos jihatlari va ularning o'quvchi savodxonligini oshirishdagi ta'siri atroflicha tahlil qilingan"<sup>2</sup>. Ushbu tahlillar natijasida olingan xulosalar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliyotdagi o'qituvchilar uchun dars jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiruvchi

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2019/06/26/education/>

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/pirls/>



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

aniq metodik tavsiyalar majmuasi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, o‘qish savodxonligini tizimli rivojlantirish – zamonaviy ta‘limning eng ustuvor vazifalaridan biridir. “Prezident farmoniga binoan, xalq ta‘limi tizimida bilim sifatini monitoring qilish maqsadida xalqaro baholash dasturlarida (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar) O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa kelajakdagi tadqiqotlarda munosib natijalarni qo‘lga kiritish uchun tayyorgarlik ishlarini tizimli ravishda olib borishni taqozo etadi”<sup>3</sup>. Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ta‘lim mazmunini xalqaro talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, o‘quv dasturlariga o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlarni integratsiya qilish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas talabiga aylandi. “O‘qish tushunishi — bu shunchaki o‘qish emas, balki matn ustida ishlash, uning tub mazmunini anglash va o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq holda ma‘lumotlarni qayta ishlash qobiliyatidir”<sup>4</sup>. Bu jarayon o‘quvchining nafaqat intellektual salohiyatini yuksaltiradi, balki unda mustaqil fikrlash, voqea-hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish hamda hayotiy muammolarga kreativ yechimlar topish malakasini ham shakllantiradi.

PIRLS baholash dasturida qo‘llaniladigan asosiy matn turlari quyidagilardan iborat: Badiiy matnlar: Bolalar adabiyoti durdonalari, turli hikoya va ertaklar. Axborot matnlari: Ensiklopedik ma‘lumotlar, ilmiy-ommabop maqolalar va faktlarga asoslangan matnlar. PIRLS talablari darajasidagi matnlar ustida mashq qilgan o‘quvchi axborotlar oqimida adashib qolmaydi, balki o‘qiganlari asosida mantiqiy zanjir yaratishni va o‘z fikrini dalillashni o‘rganadi. Bu esa bolaning nafaqat ona tili darslarida, balki barcha fanlarni o‘zlashtirishda hamda hayotiy muammolarga oqilona yondashishda muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi. Ushbu matnlar asosida tuzilgan savollar o‘quvchining matn mazmunini qay darajada tushunganini, asosiy g‘oyani ajratib olish va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. “Quyida O‘zbekistonning PIRLS 2026 tajriba-sinovida xalqaro baholash tadqiqotida ishtiroki, o‘qish savodxonligi bo‘yicha baholash mezonlari keltirib o‘tilgan.

PIRLS 2026 tajriba-sinovida O‘zbekiston ishtiroki

14 ta hudud

30 ta maktab

57 ta sinf

Rejalashtirilgan: 1516 nafar

Qatnashdi: 1471 nafar (97%) “<sup>5</sup>

Uch ballik savol topshiriqning boshida beriladigan savollar bo‘lmasligi lozim, chunki o‘quvchilar sinovga kirishib olishlariga imkon berilishi kerak. Shuningdek, bunday

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni.

<sup>4</sup> “What is Reading Comprehension?” (en-US). Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans (2008-yil 29-may).

<sup>5</sup> <https://share.google/4UZ9vD8IncE3Ucd92>



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

savollarni topshiriqning so‘nggi qismiga qo‘yish ham o‘rinli emas, sababi o‘quvchilar bu turdagi savollarni chetlab o‘tib, sinovni yakunlashga majbur bo‘lishi mumkin. Imkoni boricha savollarning xolisligiga e‘tibor bering. Savolda berilgan ma‘lumot boshqa savollarning javobini topishga yo‘naltirilmaganligiga e‘tibor bering. Shuningdek, muayyan savolga to‘g‘ri javob berish avvalgi savollarga aslo bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bundan tashqari, “javob yozishni talab etadigan ochiq savollarga turlicha javob berilishi lozimligi hamda o‘quvchilar savollarning mavzusi yoki asosiy g‘oyasini ko‘chirib yozishlarini talab qilmasligi lozim”<sup>6</sup>.

PIRLS tadqiqoti materiallarini tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligiga, lug‘at boyligi va murakkablik darajasiga, matnning qiziqarli va motivatsion bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi. Badiiy matnlar – tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilsa, axborot matnlari – mantiqiy fikrlash va faktlarga asoslangan tushunishni oshirishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Har ikki turdagi matnlarni qo‘llashning ahamiyatlidir. O‘quvchining tushunish jarayoni va o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlariga qaratilgan PIRLS baholash dasturining foizli ko‘rsatkichlarda berilishi quyidagilarni inobatga olib tuzilgan har bir matnga oid savollar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: Izlash va topish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda 3 tadan 4 tagacha savol/topshiriqlar berilishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo‘ladi); To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish: 5 balldan 6 ballgacha (4 yoki 5 tadan savol bo‘lishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir yoki ikki ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo‘ladi); Talqin qilish va umumlashtirish: 5 balldan 6 ballgacha (2 yoki 3 tadan savol bo‘lishi mumkin, chunki savollar asosan 2 yoki 3 ballik javob yozishni talab etadigan uzunroq ochiq savollardan iborat bo‘ladi); Baholash va tanqidiy baho berish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda odatda bir necha har xil turdagi savollar beriladi, shu sababli savollar 4 ta muqobil javob variantidan tortib bitta javob yozishni talab qiladigan uch ballik ochiq savollargacha bo‘lishi mumkin). O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini to‘g‘ri baholash uchun har bir matn tarkibidagi savollarga ajratilgan umumiy ball kamida 15 ball bo‘lishi kerak. Tajriba sinovi va qayta ko‘rib chiqish jarayonida ayrim savollar olib tashlanishini inobatga olib, har bir matn yuzasidan umumiy 18-20 ballga teng savollar tuziladi. Har bir matn uchun o‘rtacha 12 tadan 14 tagacha savollar bo‘lishi lozim. Muqobil javob variantli savollarga bir ball beriladi.

Talab etiladigan o‘qib tushunish ko‘nikmasiga doir savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, javob yozish talab qilinadigan ochiq savollarga bir, ikki yoki uch ball beriladi. Har bir matn yuzasidan berilgan 12 tadan 14 tagacha bo‘lgan savollarni tuzishda quyidagilar inobatga olinadi: Boshlang‘ich savollar osonroq savollar bo‘lishi kerak. O‘quvchilar murakkabroq savollarga o‘tishlaridan avval ularga bir yoki ikkita osonroq savollar beriladi. Mazkur savollar nisbatan murakkab bo‘lmagan savollar hisoblanib, o‘quvchilarni matn bilan ishlashiga imkon beradi. Savollar matnning asosiy g‘oyasiga yoki matnning boshlanish qismida berilgan asosiy ma‘lumotga yo‘naltirilgan

<sup>6</sup> Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin. PIRLS 2016 Item Writing Guidelines.



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

bo'lishi kerak. Savollar matnda berilgan ma'lumotlar ketma-ketligiga mos ravishda berilishi kerak. Savollarning javobi matnda berilgan ma'lumotlar ketma-ketligida bo'lishi kerak. Bu ayniqsa ma'lumotlarni topish va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmasini baholovchi savollarni tuzishda qo'l keladi. Ammo, buni boshqa savollarga ham qo'llash mumkin. O'quvchilar matndan savollarga to'g'ri javobni topa olishlari uchun ko'p vaqtlarini sarflab yubormasligi lozim. Murakkabroq jarayonlarni baholovchi barcha savollar ham topshiriqning so'nggi qismida berilmasligi kerak. O'quvchilarning talqin qilish va umumlashtirish yoki baholash va tanqidiy baho berish ko'nikmalarini baholovchi savollar butun topshiriq bo'ylab teng taqsimlangan bo'lishi kerak. Bu esa barcha topshiriqlarni bajara olishga vaqti bo'lmagan o'quvchilarga shu turdagi ko'nikmalarini namoyon etishlariga imkon beradi. Har bir matn uchun bittadan uch ballik savol tuzing. Mazkur savol o'quvchilarning talqin qilish va umumlashtirish va jarayonni baholash ko'nikmasini tekshiradi. Har bir matn asosida bittadan uch ballik savol tuzilsa, bu o'quvchilarning tushunish darajalarini namoyon etishlariga yordam beradi. Bittadan ortiq uch ballik savol tuzmaslik so'raladi, chunki o'quvchilar mazkur savollarni bajarishga ko'p vaqt sarflab yuborishlari mumkin.

### **Natija va muhokamalar**

PIRLS baholash dasturi uchun saralab olingan materiallar o'quvchilarning mutolaa madaniyati va matni anglash darajasini turli qirralardan tahlil qilish imkonini beradi. Amaldagi matnlarning mavzu jihatidan rang-barangligi o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga va mustaqil fikrlash qobiliyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tuzilgan savollar majmuasi faqatgina matndagi faktlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda tanqidiy mushohada yuritish va tahliliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, PIRLS talablari asosida tanlangan o'quv resurslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda strategik ahamiyatga egadir. Matn tanlash jarayonida belgilangan mezonlarga qat'iy amal qilish o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini bevosita belgilab beradi. Turli janrdagi matnlarning o'zaro mutanosibliigi bolalarning har tomonlama bilim olishiga va axborotni turli usullarda qayta ishlashiga zamin yaratadi. Pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan zamonaviy va samarali o'qitish uslublari esa o'quvchilarning matn ustida ishlash mahoratini takomillashtiradi. Interfaol yondashuvlar yordamida o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglab yetadilar, bu esa o'z navbatida ularning tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirib, kelajakdagi akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matnlar bilan ishlash malakasi nafaqat ona tili darslarida, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham muhim poydevor hisoblanadi. Matnlarni dars mashg'ulotlariga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Buning uchun, eng avvalo, tanlanayotgan materiallar o'quvchining yoshiga va tushunish darajasiga to'la mos kelishi talab etiladi.

### **Xulosa**

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, PIRLS xalqaro baholash dasturi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki boshlang'ich ta'lim sifatini tizimli ravishda yuksaltirishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning matni



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu shunchaki mexanik jarayon emas, balki bolaning tanqidiy fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va axborotni shaxsiy tajribasi bilan bog‘lay olishini ta‘minlaydigan murakkab pedagogik tizimdir. Tadqiqot davomida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi: Matn tanlash san‘ati: Badiiy va axborot matnlarining o‘zaro mutanosibli o‘quvchining ham hissiy, ham intellektual olamini boyitadi. Matnlarning yoshga mosligi va qiziqarliligi o‘quvchi motivatsiyasini belgilovchi asosiy omildir. Baholash mezonlarining o‘rni: PIRLS tizimidagi savollar (izlash, xulosa chiqarish, talqin qilish va baholash) o‘quvchini matn ustida chuqur ishlashga o‘rgatadi. Har bir savol turi ma‘lum bir tahliliy ko‘nikmani shakllantirishga yo‘naltirilgan. Strategik yondashuv: O‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning matn mazmunini teranroq anglashiga va dars jarayoniga to‘liq jalb etilishiga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, milliy ta‘lim tizimimizda PIRLS standartlariga mos o‘quv materiallarini ko‘paytirish, darsliklar mazmunini xalqaro talablar asosida takomillashtirish va pedagoglarning ushbu yo‘nalishdagi mahoratini doimiy oshirib borish – yosh avlodning intellektual salohiyatini jahon andozalari darajasiga olib chiqishning eng samarali yo‘lidir. Bu kabi islohotlar kelajakda o‘quvchilarimizning nafaqat xalqaro sinovlarda, balki hayotiy vaziyatlarda ham axborot bilan savodli ishlashlariga zamin yaratadi.

#### **FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni.
2. “What is Reading Comprehension?” (en-US). Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans (2008-yil 29-may).
3. Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin. PIRLS 2016 Item Writing Guidelines.
4. Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin, Editorss PIRLS 2021 Assessment Frameworks. Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) Library of Congress Catalog Card Number: 2019904373 ISBN: 978-1-889938-52-3.
5. <https://share.google/4UZ9vD8IncE3Ucd92>
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/06/26/education/>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/pirls/>

